

“O‘ZBEK GEOLOGIYA QIDIRUV” AJ

- 1. Korrupsiya tushunchasi, kelib chiqish sabablari va tarixi.**
- 2. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun va mohiyati.**
- 3. Korrupsiyaga qarshi kurashish, Jamiat boshqaruvi raisining Murojaati.**

1. Korrupsiya — bu jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur etkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Korrupsiya (lot. Corrumpere — buzmoq) termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qonunchilik va ahloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi.



- Ko‘p hollarda bu atama siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata ishlatiladi. Korrupsiya ko‘plab davlatlarning jinoyat va ma’muriy qonunchiligi bilan huquqqa qarshi harakat sifatida ta’qib qilinadi.

Xalq tilida soddagina qilib-poraxo‘rlik, keng ma’noda korrupsiya, deb ataluvchi hodisa barcha islohotlar ildiziga bolta urarkan, ushbu maqolada uni keltirib chiqaruvchi sabab va qarshi kurash choralarini tahlil etamiz.

Iqtisodchi Berdhenning fikriga ko‘ra, makroiqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichiga eng katta salbiy to‘lqinni olib kiruvchi omil aynan korrupsiya hisoblanadi. Uning ko‘rinishlari turlicha bo‘lishi mumkin: poraxo‘rlik, tovlamachilik, firibgarlik, nepotizm va h.k.



- Korrupsianing kelib chiqish ildizi qayerda?

Uning kelib chiqish sabablarini aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali yo'llarini topish bo'yicha mutaxassislar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o'tkazilgan. O'ziga xos reytinglar tuzilib, har xil ko'rsatkich va raqamlar qayd etilgan jadvallar yaratilgan. Hatto korrupsianing xilma-xil ko'rinishidagi formulalari ham ishlab chiqilgan. Hanuzgacha, barcha millatlar uchun qo'l keladigan qarshi kurashda asqotadigan yagona echim yo'q. Gap shundaki, korrupsianing asl ildizi uning paydo bo'lish geografiyasi bilan o'zgaradi. Xo'sh, O'zbekistonda qanday omillar uning kurtak otib, «gullab-yashnashi»ga sharoit yaratmoqda?

Korrupsiya ortida mo'may daromad topish ilinji turibdi, biroq har bir quyi

bosqichda uning hakalak otishiga davlat xizmatchilarining oylik maoshi pastligi sabab bo'lmoqda.

Masalan, mahalliy hokimiyatning oddiy xizmatchisini ko'z oldingizga keltiring, uning kichik maoshi, aslida xodim inson kapitaliga mos emasligi, korrupsiyaga qo'l urishga majbur qiladi. Soddaroq qilib aytganda, kuchli bilim va tajribaga ega xodim hech qachon kichik maosh taklif etilgan ish lavozimida mehnat qilmaydi. Uning oldida tanlash uchun ikkita yo'l turibdi: ish joyini o'zgartirib, ko'p oylik maosh va'da qilib turgan xususiy sektorga o'tib ketish yoki kichik maoshga «qanoat» qilib, korrupsiyaga qo'l urish. Bunday vaziyatda, davlat organlarida kadrlar etishmovchiligi kuzatilib, tajribali va bilimli mutaxassislarni yo'qotishi ham hech gap emas.

- Davlat organlarida oylik maoshni oshirish bilan korrupsiyaga barham berish mumkinmi? Aslo! Korrupsiya darajasini susaytirish borasidagi takliflarni quyida batafsil mushohada etamiz, lekin, ayni chog‘da uni keltirib chiqaruvchi yana bir omilga e’tibor qaratsak: korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sun’iy to‘siqlar.
- Sun’iy to‘siq, deb atalmish jihatlar shundan iboratki, ularning barchasini siyosiy iroda kuchi bilan yo‘q qilish mumkin. Ular nimalar?
- Ro‘yxatning boshida davlat organlari xodimlarini ishga qabul qilishda yuz berishi «belgilangan mantiqsizlik» va shaffoflikning yo‘qligidir. Gap shundaki, inson kapitalining haqiqiy qiymatini o‘zbek modelidagi «ob’ektivka» orqali aniqlash mumkin emas. Bo‘lg‘usi kadrning salohiyatini tekshirish, uning psixologik va jismoniy etukligi o‘rniga «Toshkent propiskasi», «yaqin qarindoshining sudlanganligi» kabi foydasiz vajlar har qanday bilimli kishini rasmiy doiradan uzoqroq yurishga undaydi. Agar tajribali va bilimli mutaxassis davlat organida ishlash istagi bilan eshik qoqsa, unga beriladigan ilk topshiriq ham bir talay hujjatlarni yig‘ib kelish bo‘ladi. O‘z o‘rnida har bir ma’lumotnomani olish kichik korrupsiyaga sabab bo‘lishi mumkin.
- Xulosa shundaki, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar ana shu hodisa yashab turgan jamiyat yaratgan tizimning nosog‘lom yashashida namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi asosiy vazifasi ijtimoiy kayfiyatni yoritish: cho‘qqining o‘tkir nuqtasiga etib kelganimizni eslatib turishdan iborat.

Коррупциявий ҳолатларнинг пайдо бўлиш сабаблари

Мамлакат иқтисодиёти
асосан давлат томонидан
бошқарилиши

Давлат бошқарув
органларининг халқ
билин алоқалари
узилиб қолганлиги

Халқнинг этник
жиҳатдан бирдам
эмаслиги

01

02

03

04

05

06

07

Давлат секторида
ойлик маошларнинг
хусусий секторга
қараганда анча
пастлиги

Муайян хизмат
турларида давлатда
якка хукмронлик
ўрнатилгани

Иқтисодий
барқарорликнинг
мавжуд эмаслиги

Иқтисодий ривожланиш
(ЯИМнинг аҳоли жон бошига
ўсиши) суръатлари пастлиги



Жамиятнинг
хуқуқий маданияти
пастлиги

Мамлакатдаги
сиёсий бекарорлик


Жамият ва давлат
бошқарувида сиёсий ҳомийлик,
маҳаллийчилик, қариндош-уруг
ва “ошна-оғайнигарчилик”
муносабатларининг юқорилиги

Жамиятда
радикал-диний
қарапшларнинг
мавжудлиги

Икки хил талқин
этиладиган қонун
нормаларининг
мавжудлиги

Фуқароларнинг давлат
органлари фаолияти
устидан жамоатчилик
назорати сустлиги

КОРРУПЦИЯНИНГ ТУРЛАРИ



Маиший коррупция, бу давлат хизматларини кўрсатиш соҳасида фуқаролар ва давлат хизматчилари ўртасида вужудга келадиган коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик.



Бизнесдаги коррупция тадбиркорлар ва давлат хизматчилари ўртасида вужудга келадиган муносабатлардаги коррупцияга оид ҳуқуқбузарликлар.




Ҳокимиятдаги коррупция, бу давлат ҳокимият органларида мансабдор шахслари томонидан содир қилинадиган коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик.

- Makroiqtisodiy va siyosiy-iqtisodiy tadqiqotlar, korrupsiya — davlatlarning iqtisodiy o'sishi va rivojlanishiga ulkan to'siq ekanligini ko'rsatdi. Korrupsiyaning tarixiy o'zaklari juda juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma'lum mavqega ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O'sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziylashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to'siq ekanligini ko'rsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ayniqlsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma'lum. Chunki bu holat davlatning obro'siga juda qattiq putur etkazardi. Dunyoning etakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq qoralanadi. Jumladan, Injilda "Sovg'alarni qabul qilma, chunki sovg'a ko'rni ko'radigan qiladi va haqiqatni o'zgartiradi" deyilgan bo'lsa, Qu'roni Karimda "Boshqalarning mulkini nohaq yo'l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo'lgan narsalarni olish uchun o'z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar" deyilgan.
- XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib jamiyat davlat boshqaruvi apparatining ish sifatiga toboro ko'proq ta'sir ko'rsata boshladi. Bu o'sha davrda qabul qilingan bir qator qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Jumladan, 1787 yilda qabul qilingan AQSH Konstitutsiyasida pora olish AQSH prezidentini impeachmentga tortish mumkin bo'lgan ikki jinoyatning biri sifatida ko'rsatib o'tilgan. Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va ularning mamlakat hayotidagi o'rning oshib borishi XIX-XX asrlarda rivojlangan davlatlarda korrupsiyaning dunyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan ancha kamayishiga olib keldi.

Коррупцияга қарши кураш тарихи

“Хар қандай давлат тузумида энг муҳими – бу қонунлар ва тартиб-қоидалар воситасида ишни шундай ташкил этишки, мансабдор шахслар қынғир йўл билан бойлик орттира олмасин”

“У бой вилоятга камбағал бўлиб келиб, камбағал вилоятдан бой бўлиб кетди”



“Коррупция барқ ураётган жамиятда озодлик узоқ вақт ҳукм суриши мумкин эмас”

“Коррупция – бу шахсий наф кўриш йўлида давлат ҳокимиятини суистеъмол қилиш”

3. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 3 январда қабул қилинган
“Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонунининг мазмуни ва моҳияти

Қонун 6-та боб, 34-моддадан иборат



“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ boshqaruv raisining Jamiyat va uning tarkibiy bo‘linmalar jamoasiga MUROJAATI

Mamlakatimizda davlat va jamiyat boshqaruvining turli sohalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida izchil hamda samarali chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Bu o‘rinda, Davlatimiz Rahbari juda yuqori siyosiy iroda ko‘rsatib, ushbu illatga qarshi kurashish masalasini ta’bir joiz bo‘lsa “yo hayot, yo mamot” ekanligini qayta-qayta ta’kidlab kelmoqda.

Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning parlamentga qilgan Murojaatnomasida **“Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a’zolari, ta’bir joiz bo‘lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak”**, deya alohida ta’kidlagani ham, ushbu illatning davlatchiligidan naqadar xavfli ekanligini ko‘rsatadi.

Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasi o‘laroq, korrupsiyaga qarshi kurashishga mas’ul bo‘lgan alohida nazorat bo‘limi sifatida Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatini shakllantirish bo‘limi tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilayotgan davlat siyosatining harakatlantiruvchi kuchi sifatida davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolarimiz tomonidan ushbu illatga qarshi olib borilayotgan kurashni yagona tizimli harakatga aylantirish hamda korrupsiyaga qarshi standartlar me’yorga aylangan, ushbu illatga qarshi murosasizlik va toqatsizlik maksimal nuqtaga chiqqan jamiyat barpo etish Jamiyat oldida turgan eng muhim vazifadir.

Buning uchun sodiqlik, halollik, vatanparvarlik va mas’uliyatni faoliyatning asosiy tamoyiliga aylantirgan holda, Jamiyatning har bir xodimi jamoamiz oldiga qo‘yilgan vazifalarni vijdonan, xolis va yuqori saviyada amalga oshirishi lozim.

Shu nuqtai nazardan, korrupsiya bilan bog‘liq bo‘lgan takliflar, arizalar yoki shikoyatlari bo‘lgan har bir xodimni Jamiatning aloqa kanallari orqali xabar berishga chaqiramiz.

“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ xodimi degan yuksak sharaflı maqom egasi sifatida korrupsiyaviy jinoyatlarning oqibatlari bilan emas, uni keltirib chiqaruvchi sabab, shart-sharoitlariga qarshi kurashish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish faoliyati samaradorligini oshirishda barchaga ko‘maklashishga tayyor bo‘lishimiz lozim.

Xalqimiz xizmatida ekanmiz, halollikni, oshkoraliqni hamda korrupsiyaga qarshi mutlaqo toqatsizlikni namoyish etishga tayyormiz.

Bunda Jamiat va uning xodimlari o‘zlarining barcha resurslarini – kuch-g‘ayratini, imkoniyatlarini, kasbiy hamda intellektual salohiyatini safarbar etadi, deb ishonaman!

Kuch-adolat, jipslik va halollikda!

E'tiboringiz uchun rahmat!